



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 1

2026

BOSHLANG'ICH SINFLARDA MONOLOGIK NUTQNI RIVOJLANTIRISHDA ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI FANLARINING INTEGRATSIYASI

Ikromova Gulhida Axmadillo qizi -

Farg'ona davlat universiteti, katta o'qituvchi PhD,

Axmadjonova Dilroz Abdulaxad qizi-

Farg'ona davlat universiteti, talaba

Annotatsiya.

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida monologik nutqni rivojlantirish masalasi pedagogik muammo sifatida tahlil qilinadi. Unda ona tili va o'qish savodxonligi fanlarining integratsiyasi asosida monologik nutqni shakllantirishning nazariy asoslari, metodik imkoniyatlari va amaliy ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot davomida monologik nutqning mazmuni, tuzilishi, shakllanish bosqichlari hamda integratsiyalashgan ta'lim jarayonida undan foydalanish yo'llari ochib berilgan. Maqolada matn bilan ishlash, nutqiy mashqlar, ijodiy topshiriqlar, savol-javob va suhbat metodlarining o'quvchilar monologik nutqiga ta'siri asoslab berilgan. Integratsiyalashgan yondashuv o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, nutqiy faolligi va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita ekanligi ilmiy jihatdan asoslanadi.

Kalit so'zlar: monologik nutq, boshlang'ich ta'lim, ona tili, o'qish savodxonligi, fanlar integratsiyasi, nutqiy kompetensiya, matn bilan ishlash, pedagogik yondashuv

INTEGRATION OF "NATIVE LANGUAGE" AND "READING LITERACY" SUBJECTS IN DEVELOPING MONOLOGICAL SPEECH IN PRIMARY GRADES

Ikromova Gulhida Axmadillo qizi

Fergana State University, PhD, Senior Lecturer

Axmadjonova Dilroz Abdulaxad qizi

Fergana State University, Student

Abstract.

This article analyzes the development of monologic speech in primary school pupils as a pedagogical problem. It highlights the theoretical foundations, methodological possibilities, and practical significance of forming monologic speech through the integration of the subjects "Mother Tongue" and "Reading Literacy." The study reveals the essence, structure, and stages of the formation of monologic speech, as well as ways of using it in an integrated educational process. The article substantiates the impact of working with texts, speech exercises, creative tasks, question-and-answer activities, and discussion methods on the development of pupils' monologic speech. It is scientifically proven that the integrated approach is an effective pedagogical tool for developing pupils' independent thinking, speech activity, and communicative competence.

Key words: monologic speech, primary education, mother tongue, reading literacy, subject integration, speech competence, working with text, pedagogical approach

ИНТЕГРАЦИЯ ПРЕДМЕТОВ «РОДНОЙ ЯЗЫК» И «ЧИТАТЕЛЬСКАЯ ГРАМОТНОСТЬ» В РАЗВИТИИ МОНОЛОГИЧЕСКОЙ РЕЧИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Икромова Гулхида Ахмадилло кизи

кандидат философии (PhD), старший преподаватель, Ферганский государственный университет

Ахмаджонова Дилроз Абдулахад кизи

студентка, Ферганский государственный университет

Аннотация.

В данной статье развитие монологической речи у учащихся начальных классов рассматривается как педагогическая проблема. В ней освещаются теоретические основы, методические возможности и практическое значение формирования монологической речи на основе интеграции предметов «Родной язык» и «Читательская грамотность». В ходе исследования раскрываются сущность, структура и этапы формирования монологической речи, а также пути ее использования в интегрированном образовательном процессе. В статье обосновывается влияние работы с текстом, речевых упражнений, творческих заданий, методов вопросно-ответной работы и беседы на развитие монологической речи учащихся. Научно доказано, что интегрированный подход является эффективным педагогическим средством развития самостоятельного мышления, речевой активности и коммуникативной компетентности учащихся

Ключевые слова: монологическая речь, начальное образование, родной язык, читательская грамотность, интеграция предметов, речевая компетентность, работа с текстом, педагогический подход

Kirish. Bugungi globallashuv va axborotlashgan jamiyat sharoitida ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan asosiy talablardan biri - mustaqil fikrlay oladigan, o'z fikrini ravon, aniq va mantiqiy bayon eta oladigan shaxsni tarbiyalashdan iboratdir. Ushbu vazifaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, avvalo, boshlang'ich ta'lim bosqichida nutqiy kompetensiyani shakllantirish bilan bevosita bog'liq. Chunki aynan boshlang'ich sinf davrida o'quvchilarning nutqiy rivojlanishi eng faol va intensiv kechadi. Shu sababli boshlang'ich sinflarda monologik nutqni rivojlantirish masalasi pedagogika fanining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Monolog - bir kishining o'ziga yoki boshqalarga qaratilgan nutqidir. Bu o'qituvchining bayoni, o'quvchining to'laroq javobi, ma'ruza va boshqalardir. Monologik nutq ma'lum qiyinchiliklarga ega. Monologda gapirayotgan kishi fikrlarning aniqligiga, grammatik qoidalarining saqlanishiga, mantiq va aytilayotgan fikrlarning izchilligiga e'tibor berishi kerak. Dialogik nutqqa nisbatan monologik nutq kechroq shakllanadi. Maktabda o'qituvchilar o'quvchilarda monologik nutqni rivojlantirishga alohida e'tibor berishlari kerak. [1, 67]

Monologik nutq - so'zlovchining o'ziga qaratilgan, boshqa shaxsning tinglash va javob berishini e'tiborda tutmaydigan nutq shakli. Monologik nutq uchun, odatda, tuzilish va mazmun jihatdan o'zaro bog'liq, o'ziga xos kompozitsion qurilishga va mantiqiy tugallikka ega bo'lgan matnning ma'lum bo'lagi xos bo'ladi. Monologik nutq og'zaki (nutq bayon qilish) yoki yozma (publitsistika, memuarlar, kundaliklar) shaklida ifodalanishi mumkin. Monologik nutqning og'zaki shaklida ohang (intonatsiya) muhim o'rin egallaydi, yozma monologik nutqda esa ohang matnning sintaktik konstruksiyasiga, mantiqiy urg'u tushuvchi so'zlarning joylashish o'rniga bog'liq. [2, 53]

Monologik nutq - tinglovchilarning tezda javob qaytarishi, fikr bildirishi uchun mo'ljallanmagan, nisbatan uzoq vaqt davom etadigan izchil, mantiqiy tugallangan bayon. U juda murakkab tuzilishga ega, tinglovchilarga noma'lum bo'lgan kishining fikrini ifodalaydi. Shuning uchun bu bayon axborotning to'liq ifodasini o'z ichiga oladi. Monolog ichki tayyorgarlikni talab qiladi, bunda mazmunni ifodalash uchun so'zlar aniq tanlanadi, fikr asosiy narsaga qaratiladi. [2, 54]

Gap ustida ishlash o'quvchilarning nutqini o'stirishda muhim ahamiyatga ega. Gap ustida ishlashning asosiy vazifasi o'quvchilarni sintaktik jihatdan to'g'ri va aniq gap tuzib, tugallangan fikr bildirishga o'rgatish hisoblanadi. Gap (grammatik jihatdan o'zaro bog'langan, tugallangan mazmun va tugallangan intonatsiyaga ega bo'lgan) nutq birligi bo'lib, aloqa maqsadiga xizmat

qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun muhimi, birinchidan, gap nutq birligi ekanligidir. Shunday ekan, nutqqa oid mashqlarga qo'yilgan talablar gap ustida ishlash mashqlariga ham taalluqlidir; ikkinchidan, gap grammatik tomondan to'g'ri tuzilgan birlik bo'lib, gap ustida ishlash grammatika bilan chambarchas bog'liqdir. Bu jarayonda gap qurilishi, gapda so'zlarning bog'lanishi va gapning turlari ustida ishlash juda muhimdir; uchinchidan, gap nutq va til birligi bo'lib, tugallangan mazmunni bildiradi. Binobarin, gapning mazmuniy asosi, mazmun ottenkalari ustida ishlash va ularning gap tuzilishiga bog'liqligi ustida ishlash ham zarur; to'rtinchidan, gapning intonatsiyasi katta ahamiyatga ega, shuning uchun intonatsiya ustida ishlash, intonatsiyaning mazmun bilan bog'liqligini tushuntirish kerak. Boshlang'ich sinflar dasturining "Grammatika, imlo va nutq o'stirish" bo'limida sintaksisdan beriladigan bilimlar aniq ko'rsatilgan. Bola boshlang'ich sinflarda beriladigan sintaktik materiallar hajmida faqat ona tili darslaridagina emas, balki boshqa darslarda va maktabdagi barcha mashg'ulotlar jarayonida ham gap tuzish, uni tahlil qilish va qayta tuzishga o'rgatib boriladi. [3, 318]

Ma'lumki, nutq tafakkur bilan bog'liq, shuning uchun u tafakkur bilan uzviy bog'liq holda o'stiriladi. Darsda o'qilgan asarni o'quvchilar ongli tushunishi, asosiy mazmunini, g'oyasini anglab yetishi uchun tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish kabi mantiqiy usullar qo'llanadi. O'qilgan asarni analiz qilishda har xil ish usullaridan foydalaniladi. Bolalar hikoyadagi asosiy qatnashuvchi shaxslarni aytadilar, o'qituvchi rahbarligida asar rejasini tuzadilar. Qatnashuvchi shaxslarni o'quvchilar har xil tartibda aytishlari mumkin, ammo o'qituvchi ularni asarda qatnashish tartibida aytishni so'raydi. Natijada o'qituvchi rahbarligida hikoyaning chizmasi tuziladi. O'qituvchi bergan savollar yordamida asarlarning mazmuni aniqlanadi.

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'quvchilar nutqining o'sish darajasi to'g'ri uyushtirilgan qayta hikoyalashdir. Maktab tajribasida to'liq, qisqartirib, tanlab va ijodiy qayta hikoya qilish turlari mavjud. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun matnni to'liq yoki matnga yaqin qayta hikoyalash ancha oson, boshqa turlari esa nisbatan qiyinroqdir. Qayta hikoyalashda o'qilgan hikoya mazmuni yuzasidan o'qituvchining savoli hikoyaning detallari haqida, ayrim voqealar o'rtasidagi bog'lanishning sabab-natijalari haqida fikrlashga qaratilishi lozim. Asar sujetining rivojlanishida qatnashuvchi shaxslar, ularning xatti-harakati asosiy rol o'ynaydi. O'quvchilar asar mazmunini unda ishtirok etuvchi shaxslar va ularning xatti-harakati, xarakterli xususiyatlarini tahlil qilish yordamida yaxshi anglab yetadilar. O'qituvchining savoli asar qahramonlari nima qilgani, ularning u yoki bu xatti-harakati qayerda va qanday sharoitda yuz bergani haqida so'zlab berishga, voqealarni izchil bayon qilinishga va o'zaro bog'liqligini yoritishga yo'naltirilishi lozim. [3, 163]

Yozuv darslarida ham o'quvchilarning nutqini o'stirish, fikrlashga o'rgatish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Yozuvga o'rgatishning dastlabki kunlaridanoq bolalarning o'z fikrini yozma ifodalashi muhim ekanligini, u insonlarning aloqaga kirishuvida muhim vositaligini tushunishlariga erishish lozim. Buning uchun o'quvchilar yozadigan birinchi so'z ularning jonli nutqidan yoki o'zlari tuzgan gapdan olinishi kerak. Bu jarayonda ko'chirib yozish va diktant ijodiy yozuvdan so'ng o'tkaziladi. Bu yozma mashq turlarining ongli bajarilishini, o'quvchilarning bilish faolligini ta'minlaydi. Masalan, bolalar o'qish darsida „Alifbe“ da berilgan rasmga qarab gap yoki hikoya tuzadilar, yozuv darsida esa o'sha gap yoki hikoyadagi ma'lum bir so'zni yozadilar. Bu ular uchun ijodiy yozuv - inshodir. Keyinchalik o'quvchilar alohida so'z yozishdan kichik-kichik gaplarni yozishga o'tadilar. [3, 60]

Tanlab hikoyalash bolalarning tafakkuri va nutqini o'stirish vositalaridan biridir. Tanlab hikoyalashda o'quvchi:

- 1) o'qilgan matndan bir qismini, uning chegarasini ongli ravishda ajratib so'zlab beradi;
- 2) hikoyadan faqat bir voqeani aytib beradi;
- 3) hikoya mazmunini faqat bir sujet yo'nalishida so'zlab beradi. [3, 328]

Natijalar va muhokama. Monologik nutq o'quvchining tafakkur darajasi, til boyligi, mantiqiy fikrlash qobiliyati va kommunikativ madaniyatini namoyon etuvchi muhim nutqiy shakldir. U o'quvchining voqea-hodisalar haqidagi fikrlarini uzluksiz, izchil va tizimli tarzda bayon eta olish qobiliyatini ifodalaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida monologik nutqni shakllantirish esa tasodifiy emas, balki maxsus tashkil etilgan pedagogik jarayon asosida amalga oshirilishi lozim.

Mazkur jarayonda ona tili va o'qish savodxonligi fanlari yetakchi o'rin tutadi. Bu fanlar o'z mazmuni va vazifalariga ko'ra bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning integratsiyasi o'quvchilarning nutqiy faoliyatini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi. Ona tili fani til birliklarini o'rgatish orqali nutqning grammatik va leksik asoslarini shakllantirsa, o'qish savodxonligi fani esa bu bilimlarni real nutqiy faoliyatda qo'llash imkonini beradi. Shu bois ushbu fanlarni integratsiyalashgan holda o'qitish monologik nutqni rivojlantirishda muhim pedagogik ahamiyatga ega.

Fanlar integratsiyasi - bu turli fanlar mazmunini o'zaro uyg'unlashtirish, ular o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni ta'minlash va o'quvchilarda yaxlit bilimlar tizimini shakllantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvdir. Boshlang'ich ta'limda ona tili va o'qish savodxonligi fanlarining integratsiyasi tabiiy va zarur jarayon hisoblanadi, chunki bu fanlar umumiy maqsad - o'quvchilarning nutqiy va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ona tili fanida o'quvchilar tovush va harflar, so'z va so'z turkumlari, gap va uning turlari, matn tuzilishi haqidagi bilimlarni egallaydilar. O'qish savodxonligi fanida esa ushbu bilimlar asosida matnni tushunish, o'qish, tahlil qilish va qayta bayon etish ko'nikmalari shakllantiriladi. Fanlar integratsiyasi orqali o'quvchi nazariy bilimlarni amaliy nutq jarayonida qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Integratsiyalashgan darslarda o'qituvchi ona tili va o'qish savodxonligi fanlari mazmunini bir butun holda tashkil etib, o'quvchilarning monologik nutqini rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlardan foydalanadi. Masalan, o'qilgan matn asosida hikoya tuzish, qahramonlarga tavsif berish, voqealarni ketma-ketlikda bayon qilish, matnga munosabat bildirish kabi mashqlar monologik nutqni rivojlantirishda samarali hisoblanadi.

Matn bilan ishlash monologik nutqni rivojlantirishning eng samarali vositalaridan biridir. Matn o'quvchi uchun tayyor nutqiy model bo'lib xizmat qiladi va u orqali o'quvchi nutqning tuzilishi, mazmuni va mantiqiy bog'liqligini anglaydi. Ona tili va o'qish savodxonligi fanlari integratsiyasida matn bilan ishlash markaziy o'rin egallaydi. Boshlang'ich sinflarda matn bilan ishlash jarayonida quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratiladi:

- matnni to'g'ri va ifodali o'qish,
- asosiy fikrni aniqlash,
- matn rejasini tuzish,
- qayta hikoyalash,
- ijodiy davom ettirish.

Ushbu faoliyat turlari o'quvchilarning monologik nutqini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, qayta hikoyalash jarayoni o'quvchidan matn mazmunini tushunishni, asosiy fikrlarni ajratishni va ularni izchil tarzda bayon etishni talab qiladi.

Ijodiy topshiriqlar esa o'quvchining mustaqil fikrlashini va nutqiy faolligini oshiradi. Masalan, "Matn oxirini o'zing davom ettir", "Qahramon nomidan hikoya qil", "Matnga sarlavha qo'y" kabi topshiriqlar o'quvchilarning monologik nutqini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

Xulosa. Boshlang'ich sinflarda monologik nutqni rivojlantirishda ona tili va o'qish savodxonligi fanlarining integratsiyasi ta'lim samaradorligini oshiruvchi muhim pedagogik yondashuv hisoblanadi. Ushbu integratsiya o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini shakllantirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va ularni erkin muloqotga tayyorlashda

muhim ahamiyat kasb etadi. Integratsiyalashgan darslar orqali o'quvchilar nazariy bilimlarni amaliy nutq faoliyatida qo'llashni o'rganadilar, bu esa ularning monologik nutqini mazmunli, mantiqiy va izchil shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois boshlang'ich ta'lim jarayonida ona tili va o'qish savodxonligi fanlarining integratsiyasiga asoslangan holda monologik nutqni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Umumiy psixologiya (darslik). –Toshkent, 2010.
2. Qodirova S.A. Ona tili o'qitish metodikasi (Nutq o'stirish metodikasi). –Buxoro: KAMOLOT, 2022.
3. Qosimova K., Matchonov S. Ona tili o'qitish metodikasi. –Toshkent: NOSIR, 2009.
4. O'qish savodxonligi. 1–4-sinflar uchun darsliklar. –Toshkent: YANGI AVLOD, 2021–2024.